



UDK:37.01

Umida DJALILOVA,
Toshkent kimyo texnologiya instituti dotsenti v.b., PhD
E-mail: u.jalilova@tkti.uz

UzDJTU professori, f.f.d D.Baxronova taqrizi asosida DSc

MIFNI O'RGANISHNING LINGVISTIK ASPEKTLARI

Аннотация

Ushbu maqolada miflarni o'rganishning lingvistik jihatlari tahlil qilinadi. Mifologik matnlarda qo'llaniladigan til birliklari, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari yoritib beriladi. Shu bilan birga, miflarda mavjud arxetipik obrazlar, metafora va simvollar til vositasida namoyon bo'lishi tadqiq etiladi. Maqolada mifning jamiyat madaniy xotirasini saqlashdagi o'rni hamda uning til vositalari orqali avlodlar o'rtasida o'tishi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Mif, mifologik matn, lingvistika, til birliklari, semantika, pragmatika, arxetip, metafora, simbol, madaniy xotira.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ МИФА

Аннотация

В данной статье анализируются лингвистические аспекты изучения мифов. Рассматриваются языковые единицы, используемые в мифологических текстах, их семантические и прагматические особенности. Особое внимание уделяется исследованию архетипических образов, метафор и символов, проявляющихся через языковые средства. В статье также подчеркивается роль мифа в сохранении культурной памяти общества и его передаче из поколения в поколение посредством языка.

Ключевые слова: Миф, мифологический текст, лингвистика, языковые единицы, семантика, прагматика, архетип, метафора, символ, культурная память.

LINGUISTIC ASPECTS OF THE STUDY OF MYTH

Annotation

This article analyzes the linguistic aspects of myth studies. It examines the language units used in mythological texts as well as their semantic and pragmatic features. Special attention is given to the study of archetypal images, metaphors, and symbols manifested through linguistic means. The article also highlights the role of myth in preserving society's cultural memory and its transmission from generation to generation.

Key words: Myth, mythological text, linguistics, language units, semantics, pragmatics, archetype, metaphor, symbol, cultural memory, through language.

Kirish. Afsonaga lingvistik yondashuvlarni ko'rib chiqishni antik davrdan boshlash mantiqan to'g'ri ko'rinadi, chunki allaqachon qadimgi an'ana "afsona"ni so'z sifatida ko'rib chiqadi.

Olamning mifologik manzarasida asosiy e'tibor tilga emas, balki o'zi nomlayotgan narsa, hodisa, uning tarkibiy qismi bilan uzviy bog'liq hisoblangan, binobarin, ularni ifodalaydigan nomga qaratiladi [1]. Insonning bilimi tegishli predmetni bilish bilan barobar edi. Masalan, skiflar urush e'lon qilganiga javoban Eron shohi Doroga qush, sichqon, qurbaqa va beshta o'q yuborganlarida, olimlardan biri bu sovg'alarni quyidagicha talqin qilgan: "Agar siz, forslar, qushlar kabi osmonga uchib ketmasangiz yoki sichqonlar kabi yerga ko'milmasangiz yoki qurbaqalar kabi botqoqqa sakramasangiz, bu o'qlarga duchor bo'lib ortga qaytmaysiz" [2].

Til va mif o'rtasidagi bog'liqlikning qiziqarli misoli sifatida Qadimgi Hindistonda grammatikaning "Veda matnlari ustiga qurilgan va keyinchalik mustaqil bilim tarmoqlari rivojlangan boshqa darajalar uchun asos bo'lib xizmat qilgan maxsus talqin darajasi" sifatida paydo bo'lishini keltirish mumkin [3].

F.de Sossyurning anagrammalar haqidagi ishi ma'lum qiziqish uyg'otadi [4]. Sossyur qadimgi shoirlarning ilohiy ismga bo'lgan munosabatini u yoki bu xudoga bag'ishlangan matnlarni yaratish jarayonida o'rgangan.

Uning qadimgi shoirning so'z va xudolarning atqali nomlari bilan fonetik "manipulyatsiyalari" haqidagi fikri qiziqarlidir. "Shoir o'zini so'zlarni fonetik tahlil qilishga bag'ishladi. Shoir so'zni, she'rni tovush segmentlariga ajratgan va matn bag'ishlangan xudoning ismini tashkil etuvchilarini tanlagan va "go'yo bu tovushlarni she'r bo'ylab tarqatgan, shundan so'ng ularni yashirincha shiflangan teonimga ishora qiluvchi anagrammatik majmuaga yig'gan".

Ko'rinib turibdiki, qadim zamonlardayoq, garchi fonemalar darajasida bo'lsa-da, mifologik nomni she'riy matnda ma'lum bir "kodlash texnikasi" mavjud bo'lgan va teonimning o'zi qandaydir "qo'shiluvchilar yig'indisi" sifatida qabul qilingan. Bu usul zamondoshlarimiz tomonidan ham faol qo'llanilmoqda. Masalan, A.Merdokning "The Unicom" romani qahramonining ismi va familiyasi Hannah Crean-Smith "Christ-name" yoki "Christ-mean" anagrammasidir. Qahramonning ismi strukturaviy-tovush darajasida ahamiyatli bo'ladi, bu muallifning o'quvchida his-tuyg'u uyg'otishga intilishi bilan bog'liq.

Sossyurning ushbu fikri mifni freym - xotiramizda u yoki bu mifni ifodalovchi elementlar yig'indisi sifatida ko'rib chiqish mumkinligi haqidagi taxminimizni asoslash, shuningdek, mifni badiiy asar matniga kiritish usullarini ko'rib chiqish uchun muhimdir.

Fikrimizcha, etnografiyada mahalliy tilni talqin qilishning uchta usuli mavjud, ya'ni ibora konteksti, mahalliy tilni bilish va sotsiologik va etnografik bilimlar. Lingvistik va etnografik omillar, B.Malinovskiyning fikriga ko'ra, bir-biridan chegaralangan, garchi ba'zi hollarda bunday chegaralash mumkin bo'lmasa ham. Aynan shu narsa madaniy va vaziyatli kontekstga tegishlidir.

B.Malinovskiyning "Marjon bog'lari va ularning sehri" [5] asaridan bevosita kelib chiqadigan ushbu holatni quyidagicha ifodalash mumkin. Lingvistik qism quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) og'zaki kontekst, 2) grammatik kontekst, 3) paralingvistik kontekst, 4) madaniy kontekst. Kontekst o'z navbatida, quyidagilarni birlashtiradi: 1) situativ kontekst; 2) maxsus madaniy kontekst: sotsiologik va etnografik bilimlar. Grafikda buni quyidagi jadval ko'rinishida ifodalash mumkin:

Lingvistik va etnografik omillarning o'zaro bog'liqligi B.Malinovskiy

Lingvistik qism				
og'zaki kontekst	grammatik kontekst	paralingvistik kontekst	madaniy kontekst	
			situativ kontekst	maxsus madaniy kontekst

Shunday qilib, Malinovskiy lingvistik qismga madaniy kontekstni kiritib, lingvistik bilimlarni ekstralingvistik bilimlarga qarama-qarshi qo'yishni olib tashlaydi: uning nazariyasiga ko'ra, folklorida amalga oshirilgan ekstralingvistik bilimlar haqiqiy lingvistik kategoriyalarni tushunish va talqin qilish imkonini beradi. Demak, taxmin qilish mumkinki, badiiy asar matniga kiritilgan mifni bilish va uni vaziyat konteksti yordamida dolzarblashtirish qobiliyati matndagi ma'lumotni to'liqroq talqin qilish imkonini beradi.

Y. M. Lotman va B. A. Uspenskiyning ta'kidiga ko'ra, mifologik olamda juda o'ziga xos semiozis turi mavjud, bu jarayon asosan nomlash jarayoniga borib taqaladi: "mifologik tafakkurda belgi – bu o'z nomi bilan aynan bir narsadir" [6.284]. Shunday deyish mumkinki, o'z nomining umumiy ma'nosi – o'zining eng yuqori darajadagi mavhumlik shaklida – bu mifga olib keladi, chunki aynan ismlar sohasida so'z va denotat o'rtasidagi ayniyat yuz beradi, bu esa mifologik tasavvurlar uchun juda xos xususiyatdir. Haqiqatan ham, tabiiy tilning "mifologik" qatlamiga qarasak, aynan ismlar (shaxs nomlari) uning yadro qismini tashkil etadi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, adabiy asardagi ism – bu mazmunli element hisoblanadi, mifologik ism esa (ya'ni mifonim) badiiy asarning uslubiy belgilangan (stilistik jihatdan ajralib turuvchi) elementidir. A.F. Losev, o'zini to'laqonli ravishda "mif va ism falsafachisi" deb atagan [7.533], mifni ichki tomondan, mifologik tafakkur doirasida qanday ishlashini tahlil qiladi. Mifologik bo'lmagan tafakkur uchun esa, ya'ni mifni tashqi tomondan idrok etayotgan tafakkur uchun mif birinchi navbatda bir rivoyat, bir voqea – mifologik syujet sifatida namoyon bo'ladi.

Matn makonida mifologik ismni ko'rib chiqish, mif "olami" va badiiy asar "olami" o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash zaruratini tug'diradi. Shu munosabat bilan ism falsafachisi deb atash mumkin bo'lgan P. Florenskiyning quyidagi fikri ayniqsa muhim ahamiyatga ega: "nafaqat ertak qahramoni, balki real inson ham o'z ismidan o'z xarakterini, ruhiy va jismoniy xususiyatlarini, taqdirini na bashorat shaklida, na bevosita oladi" [8.367]. Bizningcha, tarixga nazar tashlasak, aksariyat miflar, afsona va asotirlar insonlar nomlari bilan bevosita bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Mifning "mifdan tashqari makon"ga proyeksiyalanishi haqidagi fikr ahamiyatli ko'rinadi. D.M. Segalning yozishicha, "agar biz nafaqat o'z tuzilishiga ko'ra mif bo'lgan, balki ma'lum bir guruh a'zolari tomonidan shunday qabul qilinishi mumkin bo'lgan mifni sun'iy ravishda yaratmoqchi bo'lsak, uning motivlari, qahramonlari mifdan tashqarida qanday obyektlar bilan bog'liqligini tushunishimiz kerak va mifning tuzilishini modellashtirish kerak.

Lekin u yaratgan badiiy asar u yoki bu darajada mif modellashtirgan dunyoni qayta yaratadi, mifning "mif ichidagi" dunyosini o'z qahramonlarining "mifdan tashqaridagi" dunyosiga proyeksiyalaydi, o'zining mualliflik niyatidan kelib

chiqadi. O'quvchining vazifasi esa muallif matn "hududi"da qoldirgan zohiriy va botiniy "belgilar," "ishoralar" yordamida bu ikki olamni o'zaro bog'lashdan iborat. Bizning tadqiqotchi sifatidagi vazifamiz esa muallif bu "belgilarni" matnda qanday taqsimlaganini va ular mifning o'zi bilan qanday bog'liqligini ko'rsatishdir.

Shunday qilib, mifologiya bu ma'lumotlarni saqlash va avloddan avlodga yetkazishning ma'lum bir usuli bo'lgan semiotik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

"Til – bu allaqachon tayyor bo'lgan fikrni ifodalash vositasi emas, balki uni yaratish vositasidir. U shakllangan dunyoqarashning aks ettiruvchisi emas, balki uni vujudga keltiruvchi faoliyatdir" [9]. Shu sababli Potebnya uchun so'z – avvalo nutqning ijodiy harakati, ya'ni yaratuvchan harakati bo'lib, oddiy kommunikativ birlik emasdir.

S.D. Katsnelson ta'kidlaganidek, Potebnya tilning nazariy tahlilini nutqdan va nutqiy vaziyatdan ajratilgan alohida olingan so'zdan boshlaydi.

Yozuvchilar mifda mavjud "hayot dasturidan" faol foydalanadilar, uni o'zgartiradilar va shu asosda, o'z ijodiy niyatlariga muvofiq, o'z qahramonlari obrazlarini modellashtiradilar. Potebnyaning fikricha, "Mifologiklik o'zining barqarorligi tufayli emas, balki hayotiy holatlarga qo'llanilayotgani sababli saqlanib qoladi. U doimiy yangilanadigan ma'no timsoliga aylanadi".

Mifning lingvistik konsepsiyalari yoki uni til nuqtai nazaridan o'rganish haqida gapirib, A.A. Potebnyaning mifni "so'zli asar" sifatida tushunish ta'limotini chetlab o'tib bo'lmaydi. Unga ko'ra, bu "so'zli asar" "obraz va ma'nodan iborat bo'ladi, ularning o'zaro bog'liqligi ilmda bo'lgani kabi isbotlanmaydi, balki bevosita ishonitiruvchi bo'ladi, ya'ni ishonch bilan qabul qilinadi".

Potebnya bu fikrlarini mifni tushunishning asosiy tamoyillari deb hisoblaydi: "... mifda obraz va ma'no alohida bo'ladi, obrazda istiora (metafora) mavjud, biroq bu istioraviylikning mavjudligi subyektning o'zi tomonidan anglanmaydi, obraz to'liq holatda (ajratilmasdan) ma'noga ko'chiriladi. Boshqacha aytganda: mif – bu appertsepsiya (idrokii talqin)ning so'zli ifodasidir, unda faqat subyektiv ma'noga ega bo'lgan obrazga obyektivlik, ya'ni real mavjudlik nisbat beriladi".

Ko'rinib turibdiki, bu holat mifologik tafakkur egasi bo'lgan subyektlar uchun to'g'ri keladi. Mifologik bo'lmagan tafakkur egasi bo'lgan shaxslar esa obraz va ma'noni ajratishlari mumkin (masalan, Iezavel – bu fosiqa ayol timsoli sifatida, va ayni paytda Iezavel – Ahavning rafiqasi bo'lgan Bibliyadagi personaj sifatida; yoki Persefona – o'liklar saltanatining ma'budasi, ya'ni o'lim bilan bog'liq obraz sifatida va shu bilan birga Persefonaning onasi Demetralik bo'lganida, uni Aid tomonidan o'g'irlanishi haqidagi rivoyat sifatida).

Biroq mifning xususiyati shundaki, undagi obraz va ma'no vaqt o'tishi bilan shu darajada mustahkam bog'langan bo'ladi, bu bog'liqlikni uzib bo'lmaydi.

Potebnya so'z tarkibida uchta strukturaviy elementni ajratadi:

“ma'noning tashqi belgisi”,

“ma'noning ichki belgisi”,

“o'zi (bevosita) ma'no” [10].

Boshqacha aytganda, uning nazariyasining markazida “so'zning ichki obrazli shakli” tushunchasi turadi, bu esa so'zning tashqi ovoz shakliga ham, abstrakt ma'nosiga ham qarama-qarshi turadi. “So'zda biz uch unurni farqlaymiz: tashqi shakl, ya'ni bo'g'inlarga bo'linadigan tovush, mazmun –

bu tovush orqali obyektivlashtirilgan narsa va ichki shakl, ya'ni so'zning eng yaqin etimologik ma'nosi, ya'ni mazmun qanday ifodalanayotganidir”.

Bizningcha asosiy ahamiyatga ega bo'lgan fikr – bu Potebnya tomonidan ilgari surilgan fikr bo'lib, “mifning eng sodda shakllari so'z bilan mos kelishi mumkin, butun mif – bir butun hikoya sifatida – o'z tarkibida so'z shaklidagi mifni nazarda tutadi”.

Shundan o'z-o'zidan quyidagi xulosa kelib chiqadiki, agar mif hikoya sifatida so'z shaklidagi mifni nazarda tutishi mumkin bo'lsa, unda so'z shaklidagi mif ham o'z navbatida hikoya shaklidagi mifni anglatadi.

ADABIYOTLAR

1. Karakulov V.V. Pervie grecheskiye filosofi o roli yazika v poznanii// Uchenie zapiski. 1963. - S. 73-91.
2. Polosin.S.V. Mif. Religiya. Gosudarstvo. - M., 1999. - 440 S
3. Toporov.V.N. Ob “ektopicheskom” prostranstve poezii// Ot mifa k literature.- M., 1993. 30.-S
4. Sossyur.F. Trudi po yazikaznaniyu. - M., 1977. - 695 S.
5. Malinowski.B. Magiya, nauka I religiya//. - M., 1992.- 128.S
6. Lotman,Yu.M.,Uspenskiy,B.A. Mif-imya kultura // Trudi po znakovim sistemam.- Tartu, 1973. - T 284-295.S
7. Losev A.F. Jizn. Povesti. Hikoyalar. Xatlar. -1993. - 533 b.
8. Florenskiy.P.A. Imena// Opiti: Literaturno-filosofskiy sbornik - M., 1990. - 367-412.S
9. Potebnya A.A. Slovo I mif.-M.: Pravda, 1989. – 622-S.
10. Potebnya A.A.Eстетика i poetika.-M.: Iskusstvo. 1976. – 613 S.